



ISLOHOTLAR DASTURINING USTUVOR YO‘NALISHLARI KO‘RIB CHIQILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 23-iyun kuni iqtisodiy taraqqiyot, samarali boshqaruv va xalqaro hamkorlik masalalari bo‘yicha maslahatchi Suma Chakrabartini qabul qildi.

Mamlakatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar dasturining ustuvor yo‘nalishlari, shu jumladan, sog‘liqni saqlash, ta‘lim, suv ta‘minoti sohalaridagi yangilanishlar ko‘rib chiqildi.

O‘zbekistonda investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirish masalalariga alohida e‘tibor qaratildi.

Yurtimizda Xalqaro tijorat sudi faoliyatini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlarning borishi hamda Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lish yuzasidan muzokaralar jarayoni muhokama qilindi.

O‘ZA



XALQARO EKSPERTLAR FIKRI

MUDDATIDAN ILGARI PREZIDENT SAYLOVI

MAMLAKATNI YANADA DEMOKRATLASHTIRISH YO‘LIDA MUHIM QADAM BO‘LADI

Xalqaro ijtimoiy-siyosiy va ekspert doiralari vakillari O‘zbekistonda kechayotgan siyosiy jarayonlarni diqqat bilan kuzatib bormoqda.

Muddatidan ilgari Prezident saylovi O‘zbekistonning yanada taraqqiy etishi, uning tashqi hamkorlar bilan o‘zaro munosabatlarini belgilab beradigan muhim siyosiy voqealardan biri bo‘lishi shubhasiz. Xalqaro ekspertlarning aytishicha, saylovga tayyorgarlik va saylovoldi tashviqotining borishi O‘zbekistonda saylov jarayonlarining demokratlashuvi kuchayib borayotganidan, mamlakatda amalga oshirilayotgan tub va keng ko‘lamli islohotlar xalq tomonidan to‘la qo‘llab-quvvatlanayotganidan dalolat bermoqda.

Davomi 2-betda



TARAQQIYOT YO‘LI

SAYLOV JARAYONI ISHTIROKCHILARI

o‘ziga yuklatilgan vazifa va vakolatlarni yuksak mas’uliyat hamda vijdonan bajarishi lozim

**2023
9-IYUL****O‘ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
PREZIDENTI SAYLOVI**

Saylovlar demokratik huquqiy davlatning ajralmas belgisi, xalqimiz o‘z xohish-irodasini bildirishi, fuqarolarning davlat va jamiyat ishlaridagi ishtirokining asosiy shaklidir. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda saylovlar umume‘tirof etilgan xalqaro saylov standartlari, saylov huquqi prinsiplari asosida demokratik, ochiq va shaffof, oshkora o‘tayotgani alohida e‘tiborga loyiq.

Davomi 3-betda



YER VA EL

Qo‘shiqqa aylangan umr

(Ocherk)

Lola Murodova — afsonaga aylanayotgan nom. U haqida ko‘pchilik gapiradi va hammasi yaxshi gaplar. Zotan, elga yaxshi nom, ezgu ishlar bilan tanilmoq oson emas.

U haqida ba‘zan tutumi erkakcha edi, degan so‘zlar quloqqa chalinib qolishi ham bor gap. Chunki u mard edi. Ba‘zi erkaklikidan ziyodroq mardonavorlik bor edi opada. Haq bo‘lsa, bировga so‘zini bermaydigan jur‘ati, qat‘iyati bor edi.

Yoshi o‘n oltiga yetmay, o‘zi tug‘ilib o‘sgan Poloson qishlog‘ida harbiyga ketgan mexanizatorning traktorini minib, brigadasi yukini yengil qilgan ham shu qiz edi.



Yigirma yoshida yoshlar brigadasiga yetakchi bo‘lib, qo‘riq joylarda dehqonchilikni boshlagan, yerni ajriqdan tozalash uchun mablag‘ topolmay, mexanik otasiga mukofotga berilgan avtomashinani sotib, ish haqi sifatida tarqatgan ham Lolaxon edi.

Tun yarmida yolg‘iz o‘zi tomorqachilar bilan suv talashib yoqalashgan ham shu Murodova...

Bunday hollar ko‘p bo‘lgan va ularning har biri aytishga, ibrat bo‘lishga arzigulik voqea.

Davomi 6-betda

PREZIDENT QARORLARI — HAYOTDA VA NAZORATDA

SHAXSIY JAVOBGARLIK VA MAS’ULIYAT TARMOQ RIVOJINING ASOSI

Mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojida sanoat tarmog‘ining o‘ziga xos o‘rni bor. Shu bois, bu sohaga mavjud xom-ashyo va resurslardan mahsulot ishlab chiqarish hamda ularni qayta ishlash, qo‘shilgan qiymat yaratish, aholi ehtiyojini qondirish, fuqarolarni ish bilan ta‘minlashning muhim omillaridan biri sifatida alohida e‘tibor qaratilayapti.

Xo‘sh, ushbu tarmoqning elektrotexnika yo‘nalishidagi vazifalari qanday bajarilmoqda? Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘tgan yilda mazkur tarmoqda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish ko‘lami 20 trillion so‘mni tashkil etgan, eksport hajmi 800 million dollardan oshgan. Respublikamiz hududlarida 87 loyiha ishga tushirilib, 2 ming 619 ta yangi ish o‘rni yaratilgan.

Mahsulotlarning eksport geografiyasi ancha kengaygan. Ayniqsa, "GSP+" imtiyozlaridan foydalanilgan holda, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Ruminiya, Sloveniya, Chexiya, Avstriya, Vengriya, shuningdek, Iroq, Livan, Markaziy va G‘arbiy Afrikaning Gana, Kamerun kabi davlatlariga tarixda ilk bor eksport jarayoni amalga oshirilgan.

Davomi 2-betda



NIGOH



Arzon va sifatli qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga talab ortmoqda

Oziq-ovqat xavfsizligi bugungi kunda eng ko‘p e‘tibor qaratilayotgan masalalardan biriga aylandi. Jahon iqtisodiyotida kechayotgan tezkor globalashuv jarayonida bu iqtisodiy xavfsizlik masalasi sifatida ham dolzarblashib bormoqda.

Ekologik xavf-xatarlar oshib borayotgan, aholi soni esa o‘tgan asrlarga nisbatan keskin o‘sayotgan sharoitda har bir davlat oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga intilmoqda. Ushbu masalaga ilmiy yondashuv faollashib, qishloq xo‘jaligini innovatsion rivojlantirish kuchayib borayotgani boisi ham shunda.

Ko‘pchilik insonlarning to‘yib ovqatlanmasligi, sifatli yegulik iste‘mol qilish va toza ichimlik suv ichish imkoniyatining yo‘qligi, o‘zi istagan mahsulotni "cho‘ntagi ko‘taradigan" narxda sotib olish masalasi biz so‘z yuritayotgan oziq-ovqat xavfsizligining yaqqol ko‘rinishlaridir. Endi tasavvur qiling, dunyoda qancha davlat bor va ularning hammasida ham aholi ana shu imkoniyatlarga to‘liq ega emas. Sayyoramizning qaysidir bur-



chagida odamlar ochlikdan, suvsizlikdan aziyat chekayapti, yana qaysidir hududlarda mamlakat o‘z ehtiyoji darajasidagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish imkoniyatiga ega emas.

Davomi 4-betda



30-iyun — Yoshlar kuni

YOSHLAR MUAMMOLARINI HAL ETISH

yaxshi ijtimoiy hayotni ta‘minlab, ularning kelajagiga mustahkam zamin hozirlaydi



Xatirchilik Azizjon Jumayev salomatligidagi muammo tufayli og‘ir ish qilolmaydi, ammo uyida bekor o‘tirishni ham istamaydi. Shu bois, elga, oilasiga naf keltirish maqsadida sartareshlik hunarini o‘rgandi. Lekin sartareshxona faoliyatini yo‘lga qo‘yish va zarur jihozlar xarid qilishga imkoniyati yetmadi. Mahalla yoshlar yetakchisi xatlov jarayonida uning bu muammosidan xabar topib, ko‘mak berish choralari ko‘rdi va tuman hokimligi tomonidan zarur yordam ko‘rsatildi. Bugungi kunda Azizjon kasbi ortidan daromad topish bilan birga, shogirdlariga ham o‘z hunari sirlarini o‘rgatib kelmoqda.

Albatta, har bir davlatning kelajagi yoshlarning bilimi, salohiyati, ishtiyogi va yangilikka intiluvchanligi bilan bog‘liq. Yurtimizda kelajak vorislarining munosib ta‘lim-tarbiya olishi, kasb-hunar egallashi, bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishi, ham jismonan, ham ma‘nan sog‘lom bo‘lishi yo‘lida olib borilayotgan ishlar o‘z samarasini bermoqda. 2022-yil 19-yanvardan mahallalarda yoshlar yetakchisi lavozimi joriy etilgani ham navqiron avlod salohiyatini rivojlantirishda yangi imkoniyatlar eshigini ochdi.

Davomi 5-betda



PREZIDENT QARORLARI — HAYOTDA VA NAZORATDA

SHAXSIY JAVOBGARLIK VA MAS'ULIYAT
TARMOQ RIVOJINING ASOSIMirziyod YUNUSOV,
“O‘zeltexsanoat” uyushmasi
boshqaruv raisi

Boshlanishi 1-betda

Umuman olganda, hisobot davrida jami 60 dan ortiq davlatga 800,8 million dollar-dan ortiq 196 turdagi elektrotexnika mahsulotlari eksport qilingan. E'tiborlisi, ilgari eksport faoliyati bilan shug'ullanmagan Farg'ona, Samarqand, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlaridagi 15 ta korxona ilk marotaba o'z mahsulotini eksportga olib chiqqan.

Masalan, Samarqand va Qashqadaryoda asosan maishiy texnikalar Turkiya, Ozarbayjon, Tojikistonga, vodiydagi korxonalar tomonidan esa kabel-sim mahsulotlari Rossiya, Tojikiston, Qirg'iziston davlatlariga yetkazib berilgan.

Bir qator xalqaro ko'rgazmalar davomida mahalliy korxonalar tomonidan qariyb 50 million dollarlik shartnomalar imzolashiga erishilgan. Jumladan, Germaniya, Hindiston va Rossiyadagi yirik sanoat ko'rgazmalarida “Made in Uzbekistan” yorlig'i ostida milliy mahsulotlarimiz xalqaro bozorlarga kirib bordi.

Bundan tashqari, Buyuk Britaniyaning “Pitaks”, Fransiyaning “Ashan” va “Lore Marlen”, Rossiyaning “Eldorado”, “M-Video”, “DNS Atlas” va “Vayldberriyes” hamda Qozog'istonning “Sulpak” va “Texnodom” kabi yirik savdo tarmoqlari orqali mahalliy mahsulotlar eksport ko'lamini kengaytirishni maqsad qilganmiz.

Uyushma tomonidan Toshkent viloyati Ohangaron tumanida “Mis sanoati klasteri” hamda Qashqadaryo viloyatidagi “Chiroqqchi” erkin iqtisodiy zonasini hududida qayta tiklanuvchi energiya manbalari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan “Solar cluster” loyihalarini amalga oshirish boshlangan bo'lib, hozirda bu boradagi ishlar davom ettirilmoqda. Uyushma huzurida tashkil etilgan “Loyihalash va injiniring xizmatini tashkil etish markazi” tomonidan korxonalarga huquqiy va marketing tadqiqotlari o'tkazish uchun konsalting xizmatlari ko'rsatilmoqda.

Soha korxonalarini qo'llab-quvvatlash va ularga huquqiy kafolatlanish berilishi tarmoqni iqtisodiy jihatdan yangi bosqichga olib chiqdi deyish mumkin. Bu mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun ham, xorijiy investorlar uchun ham o'zaro manfaatli hisoblanadi.

Rejalar va istiqboldagi
vazifalarIqtisodiyotimizning muhim drayveri
hisoblangan elektrotexnika sanoatini

2023-yil yakunigacha jadal rivojlantirish maqsadida bir qator chora-tadbirlari rejasi ishlab chiqildi. Ayniqsa, sohaga ko'proq chet el investitsiyalarini jalb etish, xorijiy hamkorlar bilan ishlash, yangi brendlarni olib kirish orqali eksport ko'lamini yanada kengaytirish, hududlarda ishlab chiqarish quvvatlari yaratishni kuchaytirish, yangi mahsulot turlarini o'zlashtirish, qo'shimcha ish o'rinlari hamda mahalliy lashtirish darajasini oshirish, importni optimallashtirish masalalariga e'tibor qaratildi.

Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, 2023-yilda elektrotexnika mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 22 trillion so'mni tashkil etishi yoki o'tgan yilga nisbatan 2 trillion so'm ko'p (o'sish sur'ati 110 foiz) mahsulot ishlab chiqarish belgilangan edi. Investitsiyalar, sanoat va savdo vaziri boshchiligidagi tashkil etilgan ishchi guruh tarkibida respublikamiz barcha hududlaridagi soha korxonalari qayta o'rganilib, mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish, vujudga kelayotgan muammoli masalalarni bartaraf etish evaziga erishilishi mumkin bo'lgan ko'rsatkichlar qayta tahlil qilingan.

Olib borilgan o'rganish va tahlillar yakuniga asosan elektrotexnika mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 23 trillion so'mga yetkazish, ya'ni oldingi yilga nisbatan 115,7 foiz o'sish sur'atini ta'minlash rejalashtirilgan. Ushbu ko'rsatkichga erishish omillaridan biri 2023-yil investitsiya dasturi bo'lib, uning doirasida umumiy qiymati 46 million dollarlik 12 ta loyihani belgilangan muddatdan ilgari ishga tushirish, buning evaziga 766,7 milliard so'mlik ishlab chiqarish quv-

vatlarini yaratish mo'ljallangan. Shu bilan birga, hududiy dasturlarga muvofiq, ishlab chiqarish quvvati 857 milliard so'mlik 69 ta loyihani hayotga joriy etish ko'zlangan.

Ikkinchidan, Ohangaron shahrida tashkil etilayotgan “Ohangaron Tech Industrial” texnoparkida jami qiymati 191,3 million dollarlik 10 ta loyiha shakllantirilgan. Mazkur loyihalarni joylashtirish va ishlarni boshlash uchun tasdiqlab berilgan bayonnomaga ko'ra, 2023-yilda 2 ta loyihani to'liq yakunlash, 165 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqarishga erishish nazarda tutilgan.



Uchinchidan, kam quvvatda ishlayotgan va ilgari ishga tushirilgan korxona va loyihalar quvvatini oshirish, mavjud korxonalarning ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish hisobiga qo'shimcha 123 milliard so'm ishlab chiqarish rejaga kiritilgan.

To'rtinchidan, muqobil energetika yo'nalishida Qoraqalpog'iston Respublikasida yillik quvvati 150 megavatt, Qashqadaryo viloyatida ham 150 megavatt hamda Toshkent viloyatida 200 megavatt bo'lgan quyosh panellari ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish va yetkazib berish boshlanadi.

Shu kabi choralar natijasida mahsulotlar eksport hajmi 1 milliard dollarga yetkazilib, 2022-yilga nisbatan 125 foiz o'sish (birinchi chorakda 170 million dollar, o'sish 114,9 foiz) sur'atiga erishiladi. Dastur doirasida 191,5 million dollarlik investitsiyalar, shundan 58 million dollari to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar hisobiga o'zlashtiriladi (shu jumladan, birinchi chorakda 15,5 million dollar).

Mahalliy lashtirish dasturiga 47 ta loyiha doirasida 5,5 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, 503,7 million dollarlik import optimizatsiya qilinadi. Ushbu loyihalar hisobiga 35 ta yangi turdagi import o'rni bosuvchi tayyor mahsulot va butlovchi qismlar tayyorlanishi yo'lga qo'yiladi.

Quyosh panellari orqali quvvatlanadigan batareya bilan jihozlangan ko'cha yoritish uskunalar, elektromobillar uchun quvvatlash qurilmalari va stansiyalari, shishali va qum o'tkazgichli quyosh suv isitkichlari,

yassi quyosh paneli orqali ishlovchi suv isitkichlar, quyosh panellari, quruq transformatorlar shular sirasiga kiradi. Bundan tashqari, mis xom-ashyosini qayta ishlash hajmi 90 ming tonnaga yetkazilib, 2022-yilga nisbatan 128,5 foizga oshiriladi (birinchi chorakda 16,2 ming tonna, o'sish 126,6 foiz).

Ijro intizomi va mas'uliyat

“O'zeltexsanoat” uyushmasida ijro intizomini mustahkamlash, berilgan muhim topshiriqlarni o'z vaqtida va sifatli ta'minlash maqsadida tizimli ishlar yo'lga qo'yilgan. Soha rivojiga qaratilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash sanoat tarmog'ini rivojlantirish bilan birga aholi farovonligini oshirib, turmush darajasini yaxshilab kelmoqda.

Respublika Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida”gi farmoni hamda 2021-yil 31-maydagi “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori ijro intizomini mustahkamlash hamda hujjatlar ijrosini ta'minlashda dasturlamal bo'lib xizmat qilmoqda.

O'tgan davr mobaynida “O'zeltexsanoat” uyushmasi va soha korxonalari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 410 ta topshirig'i bajarilgan. Jumladan, ular-

dan 33 tasi farmon, 185 tasi qaror, 3 tasi farmoyish va 185 tasi yig'ilish bayonlari bilan belgilangan topshiriqlarni tashkil etadi.

Uyushma ijro apparatida belgilangan tizimga asosan haftaning juma kuni Boshqaruv raisi birinchi o'rinbosari huzurida, haftaning har dushanba kuni esa ijro apparatining umumiy yig'ilishida Boshqaruv raisi huzurida topshiriqlar ijrosi muhokama qilib kelinmoqda. Bundan avvalgi bosqichda esa topshiriqlar monitoring qilinib, boshqarma va bo'lim darajasida muhokama qilinadi, belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda yuzaga kelayotgan muammolar o'rganiladi.

2021-yil 2-martdagi “Elektrotexnika sanoatini yanada rivojlantirish va mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Prezident qarori bilan asosiy maqsadli ko'rsatkichlar ijrosi to'liq ta'minlandi.

Masalan, 2023-yilning birinchi choragi yakuni bilan 19,7 ming tonna mis xom-ashyosi qayta ishlanib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan (12,8 ming tonna) o'sish sur'ati 153,4 foizga yetkazildi. 4,5 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan (3,8 trillion so'm) o'sish sur'ati 117,3 foizga yetkazildi.

234,8 million dollarlik mahsulot eksporti amalga oshirilib, belgilangan reja 138 foizga bajarildi (o'sish 158 foiz) hamda 16,7 million dollarlik investitsiya o'zlashtirildi (o'sish 117,9 foiz).

Eksportni rag'batlantirish agentligi tomonidan 2022-yilda korxonalarga transport xarajatlari 44,4 milliard so'm miqdorida qoplab berildi. 2023-yilning 1-may holatiga ko'ra esa ushbu ko'rsatkich 12,7 milliard so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, tarmoq korxonalarga 2022-yilda jami 82 milliard so'mlik soliq imtiyozlari taqdim etildi. Joriy yil i chorak yakuni bilan soliq imtiyozlari summasi 38,9 milliard so'mni tashkil etgan. Shu bilan birga, soha korxonalari tomonidan joriy yilning i choragi yakuni bilan 16,7 million dollarlik investitsiyalar o'zlashtirilgan.

Elektrotexnika va elektromaishiy mahsulotlarning texnik reglamentlar hamda xalqaro talablarga muvofiqligini (xavfsizlik ko'rsatkichlari va energiya samaradorligi) baholash bo'yicha zamonaviy sinov laboratoriyasi, sertifikatlashtirish markazini joylashtirish maqsadida “O'zeltexsanoat” uyushmasi hududida umumiy maydoni ming kvadrat metr bo'lgan zamonaviy laboratoriya binosi qurib bitkazildi va faoliyat boshladi.

Bir so'z bilan aytganda, mamlakat iqtisodiyotining muhim drayveri hisoblangan elektrotexnika sanoati tez va jadallik bilan rivojlanish bosqichidan boryapti.

Bu, o'z navbatida, sohaga yangi investitsiya loyihalarini joriy etish, mahalliy lashtirish darajasini oshirish, yangi ish joylari yaratish va milliy mahsulotlarimizning xalqaro bozorlarda raqobatbardosh bo'lishida keng imkoniyatlar eshigini ochmoqda.

MUDDATIDAN ILGARI PREZIDENT SAYLOVI

MAMLAKATNI YANADA DEMOKRATLASHTIRISH YO'LIDA MUHIM QADAM BO'LADI



XALQARO EKSPERTLAR FIKRI



Davlatimiz rahbari yangilangan Konstitutsiyada mustahkamlangan normalarga muvofiq, 128-moddada mamlakat Prezidentiga berilgan vakolatlardan foydalangan holda, O'zbekiston Prezidenti saylovini muddatidan ilgari 9-iyul kuni o'tkazish to'g'risidagi muhim farmonni imzoladi. Bu mamlakatimizda boshlangan keng qamrovli demokratik islohotlarning mantiqiy davomini ta'minlovchi Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartishlardan keyingi ilk prezidentlik saylovi bo'ladi.

Boshlanishi 1-betda

Ahmad Tohir,
“Xivor” siyosiy va axborot tadqiqotlari markazi
direktori (Misr):

— Biz O'zbekistondagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy jarayonlarni doimiy kuzatib boryapmiz. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohot va o'zgarishlardan ham mamnunmiz.

Ma'lumki, 9-iyul kuni O'zbekistonda muddatidan ilgari Prezident saylovi bo'lib o'tadi.

Darhaqiqat, O'zbekiston so'nggi yillarda barcha sohalarida ulkan muvaffaqiyatlarga erishdi va farovonlik sari dadil qadam tashlamog'da.

Yurtimizda “Yangi O'zbekiston” shiori ostida boshlangan ulkan bunyodkorlik ishlari izchil davom etishi kerak. Shu bois, muddatidan ilgari Prezident saylovini o'tkazish to'g'risidagi qaror yaqinda referendum orqali qabul qilingan yangilangan Konstitutsiyaga muvofiq mantiqan to'g'ri bo'lganini alohida ta'kidlamog'chiman. Chunki O'zbekistonning yangilangan Asosiy qonunida Prezident, parlament, hukumat, vazirlar va hokimlar oldiga dolzarb siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy vazifalar belgilab berilgan.

Yang Bo,
Shanxay chet tillar universiteti
huzuridagi Rossiya va Markaziy
Osiyoni o'rganish markazi
direktorining o'rinbosari (Xitoy):

— O'zbekistonda 2023-yilga saylov tayinlanishidan oldin bir qancha muhim voqealar sodir bo'ldi. Eng asosiysi, O'zbekiston Konstitutsiyasi bo'yicha referendum o'tkazildi, mamlakat Bosh qonuniga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritishni yoqlab 90,21 foiz kishi ovoz berdi.

Ta'kidlash joizki, ushbu tadbirlarda mamlakatdagi siyosiy qurilishning borishini kuzatish mumkin. Chunki so'nggi yetti yil davomida O'zbekistonda hayotning turli jabhalarida ijobiy yutuqlarga erishildi. Xususan, valyutaning erkin konvertatsiyasi joriy etildi, moliyaviy tizim modernizatsiya qilindi, davlat organlarida islohotlar o'tkazildi, statistik ma'lumotlar sifati yaxshilandi, OAV erkinligi ta'minlandi.

Muhimi, O'zbekiston Konstitutsiyasining yangi tahririda o'z ifodasini topgan inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, ijtimoiy-siyosiy hayot va OAV erkinligini liberalashtirishga qaratilgan tub demokratik islohotlar muvaffaqiyatli amalga oshirilmog'da.

Oksana Ten,
“Bonn — Buxoro” Germaniya — O'zbekiston
do'stlik jamiyati ijrochi direktori (GFR):

— O'zbekistonda saylov jarayonlari demokratlashtirilganiga guvoh bo'lyapmiz. Ishonch bilan aytish mumkinki, ko'pmillatli O'zbekiston xalqining demokratik islohotlarga bo'lgan g'ayrati va sadoqati mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ochiqlik va so'z erkinligi siyosati samaradorligining yorqin dalilidir.

Davlatchilik taraqqiyotining hozirgi bosqichida mamlakat rahbariyati oldida barcha sohalarida samarali islohotlarni davom ettirishni taqozo qiluvchi yangi dolzarb siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy vazifalar turibdi.

Shu maqsadda mamlakat rahbari Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar, sud va ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlari hamda jamoatchilik faollari bilan uchrashuvda qonun hujjatlarida davlat rahbarining amaldagi vakolatlarini 2026-yil-



Ma'lumki, saylov jarayonining asosiy bosqichlari, jumladan, saylovni tayinlash, tashkiliy-texnik bazani shakllantirish, davlat rahbarligiga nomzodlar ko'rsatish va ro'yxatga olish, saylovoldi tashviqlarini olib borish, ovoz berish, natijalarni aniqlash va ularni qonuniylashtirish me'yori hujjatlar bilan tartibga solinadi.


Ishonchm komilki, bo'lajak Prezident saylovi barcha huquqiy normalarga muvofiq o'tadi va xalq manfaatli yo'lida O'zbekiston davlatchiligi rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ilgar Velizade,
“Janubiy Kavkaz”
siyosatshunoslar klubi
rahbari (Ozarbayjon):

— O'zbekistonda bo'lajak muddatidan ilgari Prezident saylovi mamlakatning faol siyosiy hayoti va bugungi o'zbek jamiyatiga xos bo'lgan dinamikadan dalolat beradi. Gap shundaki, yaqinda O'zbekiston Konstitutsiyasiga o'zgartishlar kiritish bo'yicha muhim referendum bo'lib o'tdi. Konstitutsiyaning deyarli 65 foizi o'zgartirildi, bu ham davr talabi.

Tabiiyki, bugungi kunda O'zbekistonda kechayotgan jadal islohotlarda davlat rahbarining hisssasi juda katta.

O'zbekiston hamkorlari uning Markaziy Osiyoda, shuningdek, Turkiya davlatlar tashkiloti va boshqa xalqaro tuzilmalar doirasidagi muloqotni faollashtirish kursini davom ettirishidan manfaatdor. Chunki bu yo'nalish barqarorlik va keyingi rivojlaniшни ta'minlashga qaratilgan.



Shu sababli 9-iyul kuni bo'lib o'tadigan muddatidan ilgari O'zbekiston Prezidenti saylovida xalq to'g'ri tanlov qiladi, munosib nomzdorni qo'llab-quvvatlab ovoz beradi. Umid qilamizki, faol ichki va tashqi siyosat kursi davom etadi, bu esa mamlakatning muvaffaqiyatli rivojlanishi kalitidir.

larini yaratdi, milliy davlatchilik rivojining tarixiy muhim bosqichida davlat va jamiyatni yanada mustahkamlashning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi.

Davlatimiz rahbari yangilangan Konstitutsiyada mustahkamlangan normalarga muvofiq, 128-moddada mamlakat Prezidentiga berilgan vakolatlardan foydalangan holda, O'zbekiston Prezidenti saylovini muddatidan ilgari 9-iyul kuni o'tkazish to'g'risidagi muhim farmonni imzoladi. Bu mamlakatimizda boshlangan keng qamrovli demokratik islohotlarning mantiqiy davomini ta'minlovchi Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartishlardan keyingi ilk Prezidentlik saylovi bo'ladi.

Ishonchm komilki, O'zbekistonda bo'lajak Prezident saylovi xalqaro andozalar asosida o'tadi va mamlakatni yanada demokratlashtirish yo'lida muhim qadam bo'ladi.

“Dunyo” AA



foizdan ortig'i Konstitutsiyani isloh qilishni yoqlab ovoz berdi. Bu esa respublikada demokratik islohotlarni amalga oshirishga xalqning yuksak sadoqatini ko'rsatdi. Yangilangan Konstitutsiya yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishning siyosiy-huquqiy asos-



TARAQQIYOT YO‘LI

SAYLOV JARAYONI
ISHTIROKCHILARIo‘ziga yuklatilgan vazifa va
vakolatlarni yuksak mas’uliyat hamda
vijdonan bajarishi lozim**Sherzod ZULFIQOROV,**
O‘zbekiston Respublikasi
Jamoat xavfsizligi universiteti
professori, ekspert

Boshlanishi 1-betda

Ma'lumki, saylovlar har tomonlama demokratik ruhda o'tishida saylov komissiyalari, ular a'zolarining o'rni va roli nihoyatda muhim. O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga saylovlarni samarali tashkil etish va o'tkazishda tegishli tizimlashgan saylov komissiyalari faoliyat yuritishi nazarda tutilgan. Xususan, mazkur saylovlarni tashkil etish va o'tkazishda Markaziy saylov komissiyasi, okrug saylov komissiyalari, uchastka saylov komissiyalari faoliyat olib boradi.

Konstitutsiyamiz, Saylov kodeksi, Markaziy saylov komissiyasining Prezident saylovini o'tkazuvchi okrug va uchastka saylov komissiyalari faoliyati tartibi to'g'risidagi qarorlari bilan tasdiqlangan nizomlar saylov komissiyalari faoliyatini tartibga soluvchi normativ bazani tashkil etadi.

**Markaziy saylov
komissiyasi
maqomi qanday?**

Konstitutsiyamizning 129-moddasiga muvofiq, Markaziy saylov komissiyasi saylov komissiyalari tizimiga boshchilik qiladi.

Markaziy saylov komissiyasi alohida konstitutsiyaviy organ bo'lib, u doimiy tarzda faoliyat olib boradi. Taqqoslash uchun aytish kerakki, qator davlatlarda saylovlarni tashkilashtiruvchi va o'tkazuvchi mustaqil, markazlashgan organlar tizimi mavjud emas va saylovni tashkil etish vazifasi ijro etuvchi hokimiyat organlari zimmasiga yuklatilgan. Masalan, Germaniya, Avstriya, Fransiya davlatlarida Ichki ishlar vazirligi, Finlyandiya Adliya vazirligi saylovlar jarayoniga boshchilik qiladi. E'tiborli jihati, bu organlar faqat saylovlar o'tkazish davridagina mazkur jarayonga o'z e'tiborini qaratadi.

O'zbekistonda esa Markaziy saylov komissiyasi Prezident saylovini, davlat hokimiyati vakillik organlariga saylovlarni, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining referendumini tashkil etadi va o'tkazadi. Uning vakolatlarida O'zbekiston Respublikasining butun hududida Saylov kodeksining ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish, kodeksning bir xil tarzda qo'llanilishini ta'minlash belgilangan.

Markaziy saylov komissiyasi a'zolari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengasining, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlarining tavsiyasi bo'yicha Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senati tomonidan saylanadi.

Xususan, Saylov kodeksida Markaziy saylov komissiyasi a'zosi bo'lish uchun bir qancha talablar belgilab qo'yilgan, ular jumlasiga yigirma besh yoshga to'lgan, qoida tariqasida, oliy ma'lumotga ega bo'lishi, saylov qonunchiligida belgilangan talab bo'yicha a'zolarining saylovlarni tashkil etish va o'tkazish borasida ish tajribasi borligi, jamoatchilik o'rtasida obro'-e'tibor qozongani, kamida oxiri besh yil O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashab turgan bo'lishi lozim.

Shuni nazarda tutish kerakki, saylov jarayonlarida yetarli tajribaga, obro'-e'tiborga ega bo'lish ham muhim talablardan biri hisoblanadi. Yevropa Kengashi huzuridagi Venetsiya komissiyasi tavsiyasida ham Markaziy saylov komissiyasi tarkibi yurist-ekspertlar, siyosatchilar, matematiklar va boshqa saylov sohasida yetarli bilimiga ega bo'lgan shaxslardan shakllangan bo'lishi lozimligiga urg'u berib o'tilgan.

Qonunchilikda saylov komissiyalari tarkibini shakllantirishda gender tenglik tamoyillariga amal qilinishi ham belgilangan. Shu bois, hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tarkibi 21 kishidan iborat bo'lib, mazkur tarkibning 7 a'zosi ayollardir.

Ushbu normaning qonunchilikda aks etishi mamlakatimizda gender tenglik masalalariga alohida e'tibor qaratilayotganidan, qolaversa, xalqaro standartlarga



muvofiqlashtirilganidan dalolat beradi. Masalan, BMT xotin-qizlar huquqlarini himoya qilishga juda katta e'tibor qaratib kelmoqda. Jumladan, ayollarning siyosiy huquqlari aks etgan konvensiya 1-moddasida "ayollarning hech bir kamsitishsiz erkaklar bilan teng sharoitlarda barcha saylovlarda ovoz berish huquqiga ega"ligi belgilangan.

**Okrug va uchastka saylov
komissiyasi tarkibini
shakllantirish,
ularning vakolatlari**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini tashkil qilish va o'tkazishda okrug va uchastka saylov komissiyalarining o'rni va roli nihoyatda yuqori hisoblanadi.

Saylov kodeksining 21-24-moddalari okrug va uchastka saylov komissiyalarining huquqiy maqomini belgilab beradi. Unga muvofiq, yigirma bir yoshga to'lgan, o'rta yoki oliy ma'lumotga ega bo'lgan, qoida



tariqasida, saylovga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish borasida ish tajribasiga ega, aholi o'rtasida obro'-e'tibor qozongan fuqarolar okrug va uchastka saylov komissiyasining a'zosi bo'lishi mumkin.

Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, joriy yilda Saylov kodeksining bir nechta moddalariga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Xususan, 25-moddaga kimlar okrug va uchastka saylov komissiyasi a'zosi bo'lishi mumkin emasligining aniq kengaytirilgan tarkibi belgilab qo'yildi. Bular: Qonunchilik palatasi deputati, mahalliy Kengash deputati, Senat a'zosi, boshqa saylov komissiyasi a'zolari, siyosiy partiyalar a'zolari va vakolatlari vakillari, viloyatlar, tuman va shaharlar hokimlari hamda ularning o'rinbosarlari, prokuratura organlari, sudlar mansabdor shaxslari, nomzodlar, nomzodlarning yaqin qarindoshlari va ishonchli vakillari, nomzodlarga bevosita bo'ysunuvchi shaxslar, og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlar sodir etgani uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoxud sudlanganligi olib tashlanmagan fuqarolar.

“

Saylov jarayonlarining joylarda o'tkazilishi uchun birinchi galdagi mas'uliyat uchastka saylov komissiyalariga yuklatilgan. Shu bois, saylovlar jarayonida aholi bilan bevosita ishlovchi va ovoz berishni tashkil etuvchi organ sifatida saylov komissiyasi faoliyatiga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Uchastka saylov komissiyasi okrug saylov komissiyasi tomonidan saylovga kamida qirq kun qolganda besh-o'n to'qqiz nafar a'zodan, shu jumladan, rais, rais o'rinbosari va kotibdan iborat tarkibda tuzilishi belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o'tkazish bo'yicha okrug saylov komissiyalari a'zolariga nomzodlar Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengasining, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlarining majlislarida muhokama qilinadi hamda Markaziy saylov komissiyasi tomonidan tasdiqlash uchun tavsiya etiladi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o'tkazuvchi okrug saylov komissiyasi tarkibi — komissiya raisi, rais o'rinbosari, kotibi va komissiyaning sakkiz-o'n sakkiz nafar boshqa a'zolaridan iborat tarkibda tuziladi.

Markaziy saylov komissiyasining 2023-yil 10-maydagi qarori bilan tasdiqlangan muddatidan ilgari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o'tkazish bo'yicha kalendar rejaga muvofiq, okrug saylov komissiyalarini tuzish hamda tarkibini matbuotda e'lon qilish saylovga kamida 50 kun

Saylov jarayonlarining joylarda o'tkazilishi uchun birinchi galdagi mas'uliyat uchastka saylov komissiyalariga yuklatilgan. Shu bois, saylovlar jarayonida aholi bilan bevosita ishlovchi va ovoz berishni tashkil etuvchi organ sifatida uchastka saylov komissiyasi faoliyatiga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Uchastka saylov komissiyasi okrug saylov komissiyasi tomonidan saylovga kamida qirq kun qolganda besh-o'n to'qqiz nafar a'zodan, shu jumladan, rais, rais o'rinbosari va kotibdan iborat tarkibda tuzilishi belgilab qo'yilgan.

Bunda uchastka saylov komissiyasi a'zolariga nomzodlar fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasa va tashkilotlar tomonidan taklif etilib, bu nomzodlar xalq deputatlari tuman, shahar Kengashlari majlislarida muhokama qilinadi hamda tegishli okrug saylov komissiyasiga tasdiqlash uchun tavsiya etiladi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, Saylov kodeksiga kiritilgan o'zgartirishlarga muvofiq, uchastka saylov komissiyasi a'zolarining yarmidan ko'pi bitta tashkilotdan tavsiya etilishi mumkin emas. Bundan O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakolatxonalari huzurida, harbiy qismlarda, sanatoriyalar va dam olish uylarida, shifoxonalarda hamda boshqa statSIONAR davolash muassasalarida, qamoqda saqlash va ozodlikdan mahrum qilish joylarida tashkil etilgan uchastka saylov komissiyalari mustasno. Bu, albatta, saylov jarayonlarining ochiq va shaffof tarzda o'tishiga yanada keng imkoniyat yaratadi.

Saylov jarayonida uchastka saylov komissiyasi uchastka bo'yicha saylovchilarning ro'yxatini tuzish, saylov kuni o'z yashash joyida bo'lish va ovoz berishda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lmagan saylovchilardan to'ldirilgan saylov byulletenlarini yopiq konvertlarda qabul qilib olish, binoning yashirin ovoz berish kabinallari yoki xonalari va saylov qutilari, shuningdek, boshqa jihozlar bilan tayyorlab qo'yilishini ta'minlash, saylov kuni uchastkada ovoz berishni tashkil etish, ovozlarni sanab chiqish va qonunchilikda belgilangan boshqa vakolatlarga ega.

**Saylovlarda kuzatuvchi va
OAVning o'rni**

Saylovlarda kuzatuvchilar va OAVning ishtiroki va o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Saylov kodeksining 6-bobida kuzatuvchilarning, siyosiy partiyalar vakolatli vakillarining, ommaviy axborot vositalarining huquq va majburiyatlari belgilab qo'yilgan. Qolaversa, Markaziy say-



lov komissiyasining qarori asosida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi saylovlarida xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlardan qatnashadigan kuzatuvchilar to'g'risida"gi, "Siyosiy partiyaning vakolatli vakili to'g'risida"gi, "Saylov kampaniyasi davrida ommaviy axborot vositalari vakillarini akkreditatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi, "Siyosiy partiyalar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan kuzatuvchilar to'g'risida"gi nizomlarda kuzatuvchilarning, siyosiy partiyalar vakolatli vakillarining, ommaviy axborot vositalarining saylov jarayonidagi ishtiroki masalasi tartibga solingan.

Ta'kidlash lozimki, saylov kampaniyasi boshlangani e'lon qilinganidan so'ng Markaziy saylov komissiyasi xorijiy davlatlar saylov organlari va xalqaro tashkilotlarga Tashqi ishlar vazirligi orqali taklifnoma yuboradi. Shuningdek, xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar ham saylovlarda xalqaro kuzatuvchi sifatida ishtirok etish istagini izhor etib, Tashqi ishlar vazirligiga murojaat etishi mumkin. E'tiborlisi, manfaatdor tashkilotlar o'z kuzatuvchilari to'g'risida saylov komissiyalariga saylovdan kamida o'n kun oldin ariza bilan murojaat qilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovda qatnashadigan kuzatuvchilar ikki toifaga bo'linadi. Bular — xalqaro kuzatuvchilar va mahalliy kuzatuvchilar.

Kuzatuvchilar instituti saylovlarning ochiq, shaffof, adolatlari o'tishini kafolatlovchi mexanizm hisoblanadi. Markaziy saylov komissiyasi akkreditatsiya qilingan xorijiy (xalqaro) kuzatuvchiga mandat beradi. Bu mandat esa xorijiy (xalqaro) kuzatuvchi saylovga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish davrida o'z faoliyatini amalga oshirishi uchun huquqiy asos hisoblanadi. Ta'kidlash lozimki, mahalliy kuzatuvchilarga, ya'ni siyosiy partiyalardan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan ko'rsatilgan kuzatuvchilarga Prezident saylovini o'tkazuvchi okrug saylov komissiyasi tomonidan mandat beriladi.

Saylov qonunchiligiga ko'ra, kuzatuvchilar saylov komissiyalari majlislarida hozir bo'lish, nomzodlar ko'rsatishga bag'ishlangan yig'ilishlarda, nomzodlarning saylovchilar bilan uchrashuvlarida ishtirok etish, ovozlarni sanab chiqilayotganda va saylov komissiyasining bayonnomasi tuzilayotganda hozir bo'lish, saylov natijalari to'g'risidagi hujjatlarning tegishli saylov komissiyasi tomonidan tasdiqlangan ko'chirma nusxalarini so'rash va olish kabi bir qancha huquqlardan foydalanishi mumkin.

Ushbu huquqlardan tashqari, kuzatuvchilarning taqiqlangan xatti-harakatlari ham belgilangan. Xususan, kuzatuvchilarga saylovchi saylov byulleteniga o'z belgisini qo'yayotgan paytda yashirin ovoz berish kabinasida yoki xonasida bo'lish, saylovchilardan ular kimni yoqlab ovoz berganligini surishtirish kabi harakatlarni amalga oshirishi mumkin emas.

Darhaqiqat, bo'lajak saylovlarning yuqori demokratik saviyada ochiq va oshkora o'tkazilishi respublikamiz ommaviy axborot vositalari va jurnalistlardan katta mas'uliyat, professionallik, xolislik, tezkorlik va yuksak fuqarolik pozitsiyasini talab qiladi.

Muxtasar aytganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga bo'lib o'tadigan saylovlarda saylov jarayonining ishtirokchilari o'zlariga yuklatilgan vazifa va vakolatlarni, o'z huquq va majburiyatlarini qonun doirasida, yuksak mas'uliyat hamda vijdonan bajarishi lozim bo'ladi. Bu esa saylovlarning demokratik xususiyatlari, ko'tarinki kayfiyatning keng jamoatchilik ko'z ongida namoyon bo'lishida bevosita xizmat qiladi.

fuqarolarga ta'sir o'tkazish, biron-bir tashviqot materialini yoki adabiyotini tarqatish, saylovchilardan ular qanday ovoz berganini surishtirish yoki saylovchilarga saylov byulleteniga belgi qo'yishda biron-bir tarzda yordam ko'rsatish, saylov komissiyasining faoliyatiga, shu jumladan, saylov qutilarini muhrashga, ularni ochishga, ovozlarni sanab chiqishga aralashish taqiqlanadi.

Xalqaro saylov standartlarida kuzatuv faoliyatini amalga oshiradigan va tartibga soladigan bir qancha hujjatlar ham qabul qilingan. Xususan, BMTning 2005-yil 27-oktabrda qabul qilingan "Saylovlarni xalqaro kuzatish prinsiplari to'g'risida"gi deklaratsiyasi, YXHTning 1990-yildagi insoniylik mezonlari bo'yicha Kopengagen hujjati, MDH kuzatuvchilari missiyasi to'g'risidagi nizom, SHHT kuzatuvchilari missiyasi to'g'risidagi nizom kabi bir qancha hujjatlarda kuzatuvchilar maqomi huquqiy tartibga solingan.

Saylov kodeksining 35-moddasiga ko'ra, ommaviy axborot vositalari vakillari saylovga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishga doir barcha tadbirlarni yoritish, saylov kuni ovoz berish binolarida, shu jumladan, ovozlarni sanab chiqish chog'ida hozir bo'lish huquqiga ega.

"Saylov kampaniyasi davrida ommaviy axborot vositalari vakillarini akkreditatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi nizomda OAV vakillarini akkreditatsiyadan o'tkazish tartibi, ularning huquq va majburiyatlarini atroficha tartibga solingan. Ta'kidlash lozimki, OAV vakillari Markaziy saylov komissiyasiga akkreditatsiyadan o'tkazish to'g'risida murojaat qiladi. Murojaat besh kunlik muddat ichida ko'rib chiqilib, MSK qarori asosida xorijiy hamda milliy OAV vakiliga akkreditatsiyadan o'tganligi to'g'risida guvohnomalar beriladi.

Ta'kidlash lozimki, saylov kampaniyasi jarayonida OAV vakili quyidagi huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi: saylovga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishga doir barcha tadbirlarni yoritish, saylov komissiyalarining majlislarida hozir bo'lish, muddatidan oldin ovoz berishni o'tkazish vaqti va joyi haqida xabardor bo'lish hamda ushbu jarayonni kuzatish, saylov kuni ovoz berish xonalarida, shu jumladan, ovozlarni sanab chiqishda hozir bo'lish, saylov jarayoni va ovoz berishning yashirinligini buzmasdan foto, video, audio yozuvlarni amalga oshirish kabi huquqlarini amalga oshirishi mumkin.

Qolaversa, OAV vakillari saylovchilarga ta'sir o'tkazish, qonunga xilof ravishda biron-bir tashviqot materialini yoki adabiyotini tarqatish, saylovchi saylov byulleteniga o'z belgisini qo'yayotgan paytda ovoz berish kabinasida yoki xonasida bo'lish, saylovchilardan ular kimni yoqlab ovoz berganligini surishtirish kabi harakatlarni amalga oshirishi mumkin emas.

Darhaqiqat, bo'lajak saylovlarning yuqori demokratik saviyada ochiq va oshkora o'tkazilishi respublikamiz ommaviy axborot vositalari va jurnalistlardan katta mas'uliyat, professionallik, xolislik, tezkorlik va yuksak fuqarolik pozitsiyasini talab qiladi.



Sohibjon TOPILDIYEV,
iqtisodiyot fanlari doktori

 Boshlanishi 1-betda

Tahlillarga ko'ra, O'zbekiston qishloq xo'jaligida barcha turdagi mahsulotni yetishtirish va qayta ishlash, o'z aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'liq ta'minlab, yana boshqa davlatlarga eksport qilish imkoniyatiga ega. Ammo uzoq yillar davomida bundan to'liq foydalanmaganimiz ham bor gap. Vaholanki, sohani ilm-fan va ilg'or texnologiyalar asosida rivojlantirishning al-qachon vaqti kelgandi. 2017-yildan keyin boshlangan katta islohotlar ham buni yaqqol ko'rsatib berdi.

Mamlakatimizning oziq-ovqat xavfsizligi borasidagi yangi siyosati, avvalo, o'zini o'zi ta'minlashni nazarda tutadi. Aholiga yetarli darajada chorvachilik mahsulotlari va o'simlik yog'i yetkazib berish, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash va saqlash uchun zarur bo'lgan bazani barpo etish, oziq-ovqat mahsulotlari asosiy turlarining yetarli zaxirasini shakllantirish, ularning chakana bahosi barqarorligini ta'minlashga erishish, chetdan keltirilayotgan mahsulotlar hajmini qisqartirib berish kabilari bu maqsadning muhim yo'nalishlari hisoblanadi.

Buning uchun mamlakatimizning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, bozorlarni sifatli, xavfsiz va arzon mahsulotlar bilan to'ldirish, aholining xarid imkoniyatini mustahkamlash, tashqi iqtisodiy faoliyatni liberallashtirish va sog'lom raqobat muhitini rivojlantirish, sohada mavjud tizimli muammolarni hal etish zarurligi kundek ravshan edi. Shu bois, islohotlarning eng boshidan ushbu yo'nalishlarda aniq vazifalar belgilab olinib, mamlakatda eksport-import operatsiyalarini tartibga solish va sodalashtirish, talab yuqori bo'lgan oziq-ovqat tovarlarini import qilishda to'siq va cheklov-larni bartaraf etish, tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining huquqlarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish bo'yicha ham izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. So-hada har yili joriy etilayotgan ko'plab imtiyoz va imkoniyatlar sabab qisqa vaqtda yurtimiz oziq-ovqat mahsulotlari eksporti bo'yicha yetakchi davlatlar qatoriga qo'shildi. Xususan, bugungi kunda diyorimizda yetishtirilayotgan 80 dan ziyod turdagi qishloq xo'jaligi mahsuloti dunyoning 71 davlatiga eksport qilinmoqda. O'zbekistonning savdo sheriklari hisoblangan mamlakatlarda ona zaminimizda pishib yetilgan mazali meva-sabzavotlarga talab yuqori.



Sara mahsulot omborlarda qolmaydi

Gap meva-sabzavotchilik tarmog'i haqida borganda u yurtimiz qishloq xo'jaligi sektorining muhim tarkibiy qismi, ham dehqon, ham fermer xo'jaliklari uchun eng foydali faoliyat turlaridan biri ekanini ta'kidlash joiz.

Arzon va sifatli qishloq xo'jaligi mahsulotlariga talab ortmoqda

Bu yo'nalishda mamlakatimiz yalpi ishlab chiqarish mahsulotining qariyb 7 foizi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 27 foizi ishlab chiqariladi. Ayni paytda O'zbekiston meva-sabzavotga bo'lgan o'rtacha yillik ehtiyojining deyarli 96 foizini o'z ishlab chiqarishi

tizimidagi islohotlarning qishloq xo'jaligi tarmoqlari raqobatbardoshligini oshirishga ta'sirini baholash uslubidan foydalaniladi. Masalan, raqobatbardoshlik, birinchi navbatda, bozorga taklif etilayotgan mahsulotning sifat ko'rsatkichlarini aks ettiradi. Sifat parametrlari odatda ishlab chiqaruv-

sharoiti jahon bozorlarida xaridorgir bo'lgan, betakror ta'm va yuqori iste'mol xususiyati-ga ega meva-sabzavotlarni yetishtirishga imkon yaratadi.

Bu turdagi mahsulotlar raqobatbardoshligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimiga yana bir qancha omillarni kiritish mumkin.

chiqarilayotgan mahsulotning sifati va raqobatbardoshligi belgilab beradi. Bu o'rinda sifatini oshirish eng asosiy masalaga aylanib borayotganini ishlab chiqaruvchi, iste'molchi va jamiyat nuqtayi nazaridan yondashib, bir qancha omillar bilan izohlash mumkin.

Birinchidan, fan-texnika taraqqiyoti natijasida mahsulotlar sifatiga qo'yilayotgan talab darajasi keskin oshmoqda. Ayniqsa, inson sivilizatsiyasi rivojlanib borishi, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanish darajasining oshishi natijasida iste'molchilar didi va talabida butunlay yangicha yondashuv vujudga kelyapti. Masalan, iste'molchi oziq-ovqat mahsulotlarining birinchi navbatda, sifat ko'rsatkichlariga, ya'ni ishonchiligi, to'yimlilik darajasi, vitaminlarga boyligi, ekologik tozaligi, uzoq saqlanishi, qadoqlanishi va boshqa holatlarga e'tibor qaratadi. Yuqori sifatli mahsulotni iste'mol qilish iste'moldan qoniqlik darajasi va uning foydalliligi ortishi bilan xarakterlanadi.

Ikkinchidan, ichki va tashqi bozorda vujudga kelayotgan keskin raqobat muhiti sharoitida yashab qolish uchun mahsulot si-fati eng zarur shartlardan biriga aylanmoqda. Uchinchidan, keyingi paytlarda korxonalar iqtisodiy faollashib, mahsulotni tashqi bozor-ga eksport qilish odatiy holga aylandi. Jahon bozorida o'rin egallash uchun esa mahsulot sifatini doimiy oshirib borish talab etiladi.

To'rtinchidan, mahsulot sifatini ta'minlash korxonalarining mahsulot birligini ishlab chiqarishga sarflaydigan resurs-lar sarfi samaradorligini oshirishga imkon yaratadi. Yuqori sifatli mahsulotlarning narxi baland bo'lishi realizatsiyadan yalpi pul tushumi, sof daromad va foyda darajasining oshishiga va natijada rentabellik ko'rsatkichlarining o'sishiga olib keladi. Bunday mahsulotlar omborlarda uzoq qol-masligi tufayli tovar-moddiy zaxiralari aylanishi tezligini oshirib, korxonaning to'lov qobiliyatini yuksaltiradi.

Beshinchidan, mahsulot sifatini oshirish umumdavlat va jamiyat miqyo-sida ham manfaatlidir. Xususan, buni mamlakatdagi yalpi talab va taklif hajmi oshishi, eksport imkoniyatlari kengayishi va valyuta tushumi ortishi, aholi ehtiyoj-larining to'laroq qondirilishi, fan-texnika taraqqiyoti tezlashishi va boshqa bir qator omillarda ko'rish mumkin.

Jahon bozoriga chiqish talablari

Demak, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda mahsulotning sifat ko'rsatkichi talablari asosiy o'rinlardan birini egallaydi. Bu xomashyo sifatini aniqlashdan boshlanadi.

Ma'lumki, qishloq xo'jaligi mahsulotlari-ni bir qismi qayta ishlash sanoati uchun xomashyo sifatida ishlatiladi. Bunga paxta, don, meva-sabzavot, sut, ipak, qorako'l va boshqa bir qator mahsulotlarni misol qilib keltirish mumkin. Qayta ishlash kor-xonalari nuqtayi nazaridan yondashganda, xomashyo sifatida ishlatiladigan qishloq xo'jaligi korxonalarining sifat ko'rsatkichlari, birinchi navbatda, ularning texnologik parametrlari bilan o'lchanadi. Bunda asosiy e'tibor yaratilishi lozim bo'lgan mahsulotga qo'yiladigan talablar xomashyoda mavjudli-giga qaratiladi va uning texnologik jarayon-ga mos kelishi e'tiborga olinadi.

Sifat talablarini belgilovchi yana bir me-zon, albatta, xalqaro standartlarning joriy etilishidir. Oxirgi yillarda yurtimizda bu borada sezilarli ishlar amalga oshirilyapti. Ko'plab xalqaro standartlar joriy etilib, tadbirkor va korxonalarining ushbu standartlarni olish ko'rsatkichi ortib bormoqda. Ya'ni, biznes vakillari o'z mahsulotini jahon bozoriga olib chiqish maqsadida yanada sifatli mahsulot yetishtirish va ishlab chiqarishga intilyapti.

Milliy mahsulotlarimizning eksport geo-grafiyasi ham yildan-yilga kengayib bo-rayotganini kuzatish mumkin. Ayniqsa, O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi maxsus imtiyozlar tizimi — "GSR+"ga a'zo bo'lgani biz uchun yanada katta bozorni ochib berdi. Ushbu tizim yurtimizda ishlab chiqariladigan 6 ming 200 turdagi mahsulotni Yevropa bo-zoriga boj to'lamasdan olib kirish imkonini beradi. "GSR+" qamrab olayotgan mahsulot liniyalarning uchdan ikki qismiga nisbatan tarifat to'liq berib qilinadi. Bu, o'z navbatida, eksport hajmining o'sishi va mamlakatga qo'shimcha investitsiyalar jalb etilishiga xiz-mat qiladi.

Hozirgi kunga kelib, yurtimizda "GSR+" doirasidagi imtiyozlardan foydalanish darajasi 87 foizni tashkil qiladi. Qisqartirilgan imtiyozlardan foydalanayotgan mahsulot segmentlari asosan to'qimachilik va kiyim-kechak, plastmassa mahsulotlari, shuning-dek, mevalar, yong'oq va sabzavotlardir. Bu yurtimiz eksport tarkibining Markaziy Osiyoning boshqa mamlakatlariga qaraganda xilma-xil ekanini ko'rsatadi.

Bir so'z bilan aytganda, so'nggi yillarda-gi murakkab global vaziyatlarga qaramay, O'zbekiston aholining oziq-ovqat xavfsizligi-ni ta'minlashda huquqiy-me'yoriy asoslarni shakllantirishga erishdi va ular takomillashtirib borilyapti. Bunda nafaqat ichki imkoniyat-larimiz, balki xalqaro hamkorlik aloqalariga ham alohida urg'u berilmoqda. Natijada bo-zorlarimizni sifatli, mo'l-ko'l oziq-ovqat mah-sulotlari bilan ta'minlash barobarida, o'zbek brendi jahon bozoriga chiqyapti. Eksport ko'lamining ortishi milliy iqtisodiyotimiz rivojiga xizmat qilayotgani esa oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan mexanizmining to'g'ri ishlayotganiga ishoradir.

“Mamlakatimiz yalpi ishlab chiqarish mahsulotining qariyb 7 foizi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 27 foizi ishlab chiqariladi. Ayni paytda O'zbekiston meva-sabzavotga bo'lgan o'rtacha yillik ehtiyojining deyarli 96 foizini o'z ishlab chiqarishi hisobidan ta'minlamoqda. Ya'ni bu boradagi ko'rsatkich yil sayin oshib boryapti.



hisobidan ta'minlamoqda. Ya'ni bu boradagi ko'rsatkich yil sayin oshib boryapti.

Jumladan, o'tgan yili yurtimizda 21,8 million tonna meva-sabzavot yetishtirilgan bo'lsa, bu 2021-yilga nisbatan 3,8 foiz, 2017-yilga nisbatan esa 12,9 foizga ko'p ekanini raqamlarda qayd etilgan. E'tibori jihatli, hozirgi kunda mamlakatimiz o'rik yetishtirish bo'yicha dunyoda 2-o'rin, sabzi yetishtirish bo'yicha 3-o'rin, gilos bo'yicha 4-o'rin, bodring yetishtirish bo'yicha 7-o'rin, olcha va anjir bo'yicha esa 8-o'rinda turibdi.

Tarmoq aholining oziq-ovqat mahsulot-lariga, qayta ishlash sanoati tarmoqlarini esa xomashyoga bo'lgan talabini qondirish bilan birga, yurtimiz eksport salohiyatini va valyuta tushumini oshirishga imkon yaratishi bilan ahamiyatlidir. Ushbu yo'nalishda zamonaviy agrotexnologiyalar asosida yuqori hosildorlikka ega, ertapishar hamda shirin ta'mli pakana va yarim pakana daraxtlarni ekish orqali intensiv bog' va uzumchilikni rivojlantirish, dunyo bozorlariga xaridorgir eksport-bor meva-sabzavot mahsulotlari yetkazib berish hajmini yanada oshirishga e'tibor qaratilayotgani boisi ham shunda.

Mahsulotning jahon bozorida talabgarligi xalqaro standartlarga mosligi, sifat darajasi va raqobatbardoshligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda o'z mahsulotini xorijga eksport qiluvchi tovar ishlab chiqaruvchilar oldida turgan eng muhim vazifalardan biri ham ana shu raqobatbardoshlik darajasini to'g'ri baholay olishdan iborat. Bunda retrospektiv tahlil asosida respublika ijtimoiy-iqtisodiy

chining manfaatidan, raqobatbardoshlik parametrlari esa iste'molchilar manfaatidan kelib chiqib aniqlanadi. Mahsulot sifatiga tabiiy-iqlimiy, texnik-texnologik, ijtimoiy-psixologik va tashkiliy-iqtisodiy xarakterdagi bir qator omillar o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bu omillarga tuproq tarkibi, hududning iqlim sharoiti, ob-havo, o'simliklar vegetatsiyasi davrining davomiyliqi, quyosh harorati, yorug'lik va namlik darajasi kabilari kiradi. Masalan, mamlakatimizda vegetatsiya davrining mart oyidan to noyabr oyining oxirlarigacha davom etishi, qulay tabiiy-iqlim



IJTIMOIY HIMOYA

“XAVOTIRLARIMIZ ENDI ORTDA QOLDI”

demoqda quyosh panellari o'rnatilgan xonadonlar sohiblari



Toshkent viloyatidagi ijtimoiy soha obyektlari hamda kam ta'minlangan aholi xonadonlariga quyosh panellarini o'rnatish ishlari izchil olib borilyapti. Hududdagi 22 ta shahar va tumanlardagi mahallalarda “Temir daftar”ga kiritilgan ehtiyojmand aholi xonadonlari muqobil energiya manbai bilan ta'minlanmoqda. Endilikda Bo'ka tumanidagi “Parkent” mahalla fuqarolar yig'inida yashovchi Jumaboyevlar xonadoni ham ana shunday imkoniyatdan bahramand bo'layotir.

— Hozir nafaqat shaharda, qishloqlarda ham elektrsiz hayot to'xtab qoladi. Ochig'ini yashirmay aytadigan bo'lsam, shu yil qishning izzirini ayoqlarida qo'shnilarimiz juda qiynaldi. Lekin bizning oilamizda muammo bo'lmadi. Uyimizni isitish, yoritish va telefonlarimizni quvvatlantirish, televizorni bemaol ishlatish imkoni bo'ldi. Qanday qilib deysizmi, chunki

xonadonimizga quyosh panellari qurilmasini o'rnatib berishgandi, — deydi Toshkent viloyatining Parkent mahallasida istiqomat qiluvchi Oqilaxon Jumaboyeva hayajon bilan.

Ha, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi xonadonlariga o'rnatib berilayotgan quyosh panellari qulay, arzon va eng asosiysi, hech qachon o'chmaydigan va

qishloq odamlari tilida aytganda, “jon-lariga oro” bo'lib kiruvchi vosita bo'lib qolayotgani kishini quvontiradi. Birgina Yangiyo'l shahrida ehtiyojmand, boquv-chisini yo'qotgan, nogironligi bor kekka yoshdagilar yashayotgan 16 xonadonga quyosh panellari o'rnatib berildi. Buning natijasida fuqarolarning elektr energiya-siga bo'lgan ehtiyojlarini to'la qondirish, shuning evaziga energiya resurslari bo'yicha davlatga qaramilgini kamaytirish orqali o'z-o'zini elektr energiyasi bilan ta'minlashga erishib kelinmoqda.

— Toshkent viloyatida joriy yil mart oyining o'zida Quyi Chirchiq, Bekobod, Bo'ka, O'rta Chirchiq, Chinoz tuman-laridagi ehtiyojmand sanalgan 128 oila xonadonlarini qayta tiklanuvchi ener-giya manbalari bilan ta'minlash uchun 2 milliard so'm mablag' ajratildi, — deydi Toshkent viloyat hokimining birinchi o'rinbosari Muzaffar Fayziyev. — Ehtiyoj-mand oilalarning moddiy ta'minotini yax-shilash, ijtimoiy ko'mak berish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash kabi inson qadrini ulug'lashga qaratilgan ishlar vilo-yatimizda keng ko'lamda olib borilmoq-da. “Temir daftar”ga kiritilgan xonadon-larga o'rnatilayotgan quyosh panellari budget mablag'lari hisobidan qoplanadi.



Bu borada viloyat hokimining farmoyishi qabul qilingan. 2023-yil boshidan buyon 3 milliard so'mga yaqin mablag' ajratilib, ikki yuzdan ziyod aholi xonadon-larini muqobil energiya bilan ta'minlash choralari ko'rilmoqda. Joriy yilda 5167 oilaga quyosh panellari o'rnatib berishni rejalashtirganimiz. Shu yilning 15-iyun

sanasiga qadar 3318 ta oilaga quyosh panellari hamda 11 ming litr quyosh suv isitish uskunalari o'rnatildi.

Quyosh panellarini o'rnatuvchi muta-xassislarning aytishicha, ushbu uskunalar maxsus issiq saqlaydigan material bilan qoplangani sababli hatto sovuq kunlarda ham kuniga atigi bir foiz issiqlik harora-da

tini yo'qotar ekan, xolos. Uskuna maxsus aliuminiy-selektiv o'ram bilan qoplanganligi bois, ushbu kollektorlar 95 foizgacha quyosh nurlarini o'ziga singdirib olib, uni suv isitishga sarflaydi.

— Bu uskunalar o'lis va chekka hudud-larda istiqomat qiluvchi biz kabi oilalarga nihoyatda qulay, — deydi bo'ka kishisi Oynisa Aykunova. — Shu yilning 8-mart bayrami arafasida xonadonimizga yangi qurilmani o'rnatib berishdi. To'g'risi, dastlabki kun-larda qanday ishlar ekan bu yangi uskuna, bor elektr energiyasini ham tortib olsa-ya, degan xavotirimiz bor edi. Yo'q, aksincha, ishlashi juda qulay, asosiysi, foydalanila-yotgan elektr uchun to'lovlarimiz keskin pasaydi. Chiroq o'chib qolmasnikan, degan xavotirlarimiz endi ortda qoldi.

Ma'lumot o'rinda aytish joizki, Toshkent viloyatida qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini ishlab chiqaruvchi 20 dan ortiq tadbirkorlik subyekti faoliyati yo'lga qo'yilishi rejalashtirilgan. Ushbu faoliyat uchun ish boshlash arafa-sida turgan tadbirkorlarga soliq va mol-mulk imtiyozlari berilmoqda. Hozirda 900 megabayt quvvatli fotoelektr stansiyala-rini qurish bo'yicha Janubiy Koreya va Xitoyning yirik kompaniyalari bilan keli-shuvchi erishildi.

Gulichehra DURDIYEVA,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri



30-iyun — Yoshlar kuni

ILK QADAM
izchil jarayonga aylanmog‘i kerak

Bolaning ta‘lim-tarbiyasi qancha erta boshlansa, shuncha yaxshi samara berishini tadqiqotchi olimlar qator misollar bilan isbotlagan. Bunda uch, besh va yetti yoshgacha bo‘lgan oraliq bosqichlar muhim o‘rin tutishini va ularning biri keyingisiga o‘ziga xos zamin tayyorlashi ham ta‘kidlab o‘tilgan. Bu bosqichlar umumlashib, bolani maktabga tayyorlash degan murakkab jarayonni tashkil etadi.



Noroy SOATOVA,
Maktabgacha va maktab
ta‘limi vazirligi huzuridagi
Maktabgacha ta‘lim
agentligining
bosh mutaxassisi

Albatta, kichikintoyning birinchi sinfga tayyor holda borishi nafaqat ustozlar, balki ota-onalar, oila kattalari zimmasidagi o‘ta mas‘uliyatli vazifa deyish mumkin. Maktabda bolalarning ta‘limni yaxshi o‘zlashtirishi esa ko‘p jihatdan maktabgacha ta‘lim tashkilotidagi jarayon bog‘liq.

Bugungi kunda yurtimizda faoliyat yuritayotgan 30 mingga yaqin maktabgacha ta‘lim tashkilotida 2 milliondan ortiq bola ta‘lim-tarbiya olayotgan bo‘lsa, 2022-2023-o‘quv yilida ularning 563 331 nafari har yilgidan o‘zgacha shukuh bilan umumta‘lim maktablariga kuzatildi.

Ularining 442 644 nafari davlat, 22 017 nafari davlat-xususiy sherikchilik asosidagi nodavlat, 83 538 nafari oilaviy hamda 15 132 nafari xususiy maktabgacha ta‘lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari hisoblanadi.

Tarbiyalanuvchilarning maktab davriga qo‘yayotgan ilk qadamlari katta hayotga debocha sanaladi. Hozirda bolalarni maktabga tayyorlashda ularni ijtimoiy munosabat va ko‘nikmalarni shakllantirish sa‘y-harakatlari yanada faollashgan.

O‘tgan yillar davomida yurtimizning ko‘plab hududiga ta‘lim-tarbiya uchun barcha shart-sharoitga ega avtobuslar “ko‘chma bog‘cha” shaklida qayta jihozlangan holda yetkazib berildi. Bu yerda “Aqlvoy” — maktabgacha ta‘lim mobil guruhlari shakllantirilgani ham muhim qadamlardan bo‘ldi. Maktabgacha ta‘limning ushbu muqobil innovatsion shakli o‘quv-tarbiya xizmatlari sifati va samaradorligini oshirish imkonini berdi.

Qamrov ko‘rsatkichi past 156 ta mahalla fuqarolar yig‘inida tayyorlangan o‘yin maydonchalarida 7 mingga yaqin bolani qamrab oladigan, qayta jihozlangan 72 ta ana shunday “ko‘chma bog‘cha” negizida 429 ta mobil guruh shakllantirildi. Bu loyiha orqali shahar va qishloqda yashovchi bolalarning teng darajada ta‘lim-tarbiya olishi ta‘minlanmoqda.

Chekka hududlarga yetib borib, u yerdagi o‘g‘il-qizlarning sifati ta‘lim-tarbiya olishini ta‘minlashni ko‘zda tutuvchi bu loyiha bog‘chaga qamrov darajasini oshirish va bolalarni maktabga sifati tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etayotir. Didaktik adabiyotlar, maxsus ishlangan film va ko‘rsatuvlar kichikintoylarga sifati ta‘lim-tarbiya berishda qo‘l kelmoqda.

Maktabgacha ta‘lim uzluksiz o‘qitishning boshlang‘ich qismi sifatida bolada bilim olishga ishtiyok uyg‘otadi, uni tizimli o‘quv jarayoniga tayyorlab boradi. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish bo‘yicha davlat talablariga muvofiq va xalqaro standartlar asosida ishlab chiqilgan “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi bolalarning bizi o‘rab olgan borliq nima, u qanday rivojlangan, tabiatda inson qanday o‘rin tutadi, uning ongi qanday paydo bo‘ladi va kamol topadi, jamiyatning tarixi, insoniyat turmush darajasini qanday qilib yaxshilash mumkin kabi masalalarga qarashi, munosabatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

O‘tgan davr mobaynida joriy etilgan amaliyot hamda xalqaro xorijiy tajribadan kelib chiqib, bolaning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, bolaga yo‘naltirilgan yondashuv asosida “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi takomillashtirildi.

Mazkur davlat o‘quv dasturi asosida 6 yoshli bolalarni boshlang‘ich ta‘limga



bepul majburiy tayyorlov guruhlari uchun yaratilgan “Ilm yo‘li” variativ dasturi ham kichik yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlashga xizmat qilib kelmoqda.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ta‘lim-tarbiya jarayoni “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi, “Ilm yo‘li” variativ dasturlarida tavsiya qilingan mavzular asosida hududiy, milliy, madaniy xususiyatlar va bu jarayonda maktabgacha ta‘lim tashkilotining imkoniyati va o‘ziga xos tomonlarini hisobga olgan holda tashkil etilgan.

Rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda bolalarning yoshi, individual xususiyatlari va ehtiyojlarini, shuningdek, mintaqaning madaniy va tarixiy xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolalarning intellektual salohiyati, ijodkorligi, yaratuvchanlik qobiliyati, mantiqiy tafakkuri rivojlantirilishida mazkur markazlarning o‘rni alohida. Masalan, “Qurish-yasash, konstruksiyalar va matematika” markazida bola ijod qilib, o‘z g‘oya va tasavvuriga tayangan holda mavzuga mos tarzda yangilik yaratasa, “San‘at” markazida aynan shu yasagan buyumni tasvirlab chizadi. “Til va nutq” markazida esa yasalgan va yaratilgan narsa, buyumning tabiatdagi ahamiyati, uning o‘rni, foydali tomonlari, jonli yoki jonsiz tabiatga taalluqli ekani haqida so‘zlab berishi mumkin.

Rivojlanish markazlarida tarbiyalanuvchilarning ongi, dunyoqarashini o‘stirish, ularni ta‘lim jarayonida erkin fikrlaydigan ishtirokchiga aylantirish nihoyatda muhimdir. Tarbiyachi ta‘lim jarayonida boshqaruvchi, bolalar esa ishtirokchiga aylanadi. Ana shu vazifani uddalashda innovatsion faoliyat ustunligi ko‘p qirrali samara keltirmoqda.



Shu o‘rinda alohida ta‘kidlash joizki, maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolalarning sog‘lig‘ini saqlash, mustahkamlash va xavfsiz muhitni ta‘minlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Bunda bolaning turli ehtiyojlarini, jumladan, harakatga bo‘lgan ehtiyojini qondirish, faol o‘yinlar va kundalik jismoniy mashqlar orqali bolalar o‘zlarining his-tuyg‘ularini, yirik va mayda motorika ko‘nikmalarini rivojlantirish, atrof-olamni o‘rganish hamda turli predmetlarni boshqarish, o‘z tanasining ta‘sir imkoniyatlarini farqlay olish, unga g‘amxo‘rlik qilishni va sog‘lom turmush tarzini qabul qilish kabi ilk tushunchalarga ega bo‘lishlariga asosiy e‘tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda maktabgacha ta‘lim tizimini takomillashtirish borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Kelgusida bolalarni maktabgacha ta‘limga qamrab olish, ta‘lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish uchun yurtimizning barcha hududida bolalarni umumiy boshlang‘ich ta‘limga bepul majburiy bir yillik tayyorlashni joriy etishda qisqa muddatli “Pley-guruh”lar, maktabgacha yoshdagi bolalarga uyiga borib maktabgacha ta‘lim xizmatlarini ko‘rsatish dasturi “Nome visits” kabi muqobil shakllarini joriy etish va rivojlantirish ko‘zda tutilmoqda.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, bugungi kun auditoriyalari o‘n yil avvaligilardan juda katta farq qiladi. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari kompyuterlar va boshqa turdagi ta‘lim texnologiyalari bilan bosqichma-bosqich jihozlanmoqda. Bunday raqamli muhitga ega bo‘lish va u bilan doimiy o‘zaro munosabat natijasida kichikintoylarning fikrlashi, axborotlarni qabul qilish va o‘zlashtirishi, fikr yuritishi oldingisidan tubdan farq qilmoqda.

Raqamli avlod kichikintoylariga eski-chu uslubda ta‘lim-tarbiya berish mumkin



emas. Bu avlodning jangi vakillariga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan innovatsion ta‘lim texnologiyalari va didaktik modellarni samarali qo‘llash orqali ta‘lim tizimini moslashtirish zarur.

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan bugungi davrda maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi, ta‘lim olishi uchun keng imkoniyatlar yaratib berish, zamonaviy va sifati ta‘lim orqali tizimli izchil takomillashtirish kun tartibidan tushmaydigan muhim vazifaga aylanmog‘i shart.

YOSHLAR MUAMMOLARINI
HAL ETISH

yaxshi ijtimoiy hayotni
ta‘minlab, ularning kelajagiga
mustahkam zamin hozirlaydi



Boshlanishi 1-betda

Buning natijasida joylarda yoshlar to‘g‘risidagi zarur ma‘lumotlarni “Yoshlar daftari” va “Yoshlar portali” elektron platformalariga kiritib borish yo‘lga qo‘yildi. Yoshlarning har biri bilan alohida ishlash tizimi eng quyi bo‘g‘in bo‘lgan mahalladan tashkil etilishi o‘g‘il-qizlarning orzu-maqсадlari, ishtiqlik tashabbuslariga keng yo‘l ochilishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Navoiy viloyatida ham ushbu tizim o‘zining yuksak samarasini bermoqda.

Birgina Xatirchi tumani misolida tahlil etadigan bo‘lsak, hududda 70 ta mahalla fuqarolar yig‘ini bo‘lib, ularda 14-30 yoshgacha bo‘lgan 52 mingga yaqin yigit-qiz istiqomat qiladi. O‘rganishlar natijasida ishsiz bo‘lgan 7 mingdan ziyod yoshlarning 4400 nafari ish bilan ta‘minlandi.

Quvonarlisi, kecha ish izlab yurgan yoshlarimiz imkon va imtiyoz sabab bugun o‘zlari ham ish beruvchi tadbirkorga aylanmoqda. Tashabbus va biznes loyihalarini amalga tatbiq etishi natijasida daromad manbaiga ega bo‘lyapti. Ana shunday yoshlardan biri Yangi qurilish mahallasida yashovchi Gulhayo Azamatovaga 10 yilga ijara asosida auktsion orqali 20 sotix yer ajratilgan va u bu yerdan daromad olish bilan birga, tengdoshlarini mavsumiy ish bilan ta‘minlamogda.

O‘tgan yili tarvuz-qovun ekip, yaxshi daromad oldik. Bu yil ham yomon emas. Turli qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ekip, hozirda birinchi hosilni yig‘ishtirib olaymiz. Takroriy ekin ekishni ham rejalashtirganman. Ishsiz tengdoshlarimni mavsumiy ishlarga jalb qilganman, — deydi Gulhayo Azamatova.

Ushbu mahallada bugun 14-30 yoshgacha bo‘lgan 630 nafar yosh bo‘lib, shundan 300 dan ortig‘i xotin-qizlardir. Yoshlar yetakchisi tomonidan o‘tkazilgan xatlovga ko‘ra, joriy yilning birinchi choragi davomida ishsiz va ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan yigit-qizlar “Yoshlar daftari”ga kiritilib, ularga amaliy yordam ko‘rsatilmogda. Yoshlar yetakchisi tavsiyasi bilan ishsiz xotin-qizlarga subsidiya asosida tikuv mashinalari berildi.

Fikrimizni Qiziltepa tumani misolida davom ettiradigan bo‘lsak, tumandagi 53 ta mahallada o‘z faoliyatini boshlagan yoshlar yetakchilari tengqurlarining muammosi joriy tomonga o‘zgarib, ildash olib bormogda. Tumanda 33 mingdan ziyod 14 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan yigit-qizlar bo‘lib, xatlov natijasida “qizil toifa”ga ajratib olingan 995 nafari tegishli yo‘nalishdagi mas‘ularga birlashtirilgan. Ular bilan alohida profilaktik, sog‘lomlashtirish va bandligini ta‘minlash bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ana shunday yoshlardan biri Malikobod mahallasida yashovchi 17 yoshli Ozodbek Ramazonov xonadonida bo‘ldik. Fe‘l-atvori joriy tomonga o‘zgarib, kasb egallash uchun ustaga shogird tushgan yigitni uyidan topolmadik. Muhimi, vaqtini samarali o‘tkazayotganidan uning onasi xursand.

Uyimizga mas‘ullar kelib, o‘g‘lim bilan suhbatlashdi va uni kasb-hunar o‘rganishiga yo‘naltirdi. Ishga qatnashi uchun velosiped

ham sovg‘a qildi. Ularining farzandim taqdiriga befarq bo‘lmaganidan mamnunman, — deydi Go‘zal Norova.

Ushbu mahallada yashovchi Asilbek Sodiqov bolaligidan sportga qiziqadi. Avvaliga futbol, kurash, tennis bilan shug‘ullanib, keyinchalik kikkboxing sport turida ham o‘zini sinab ko‘rishni istadi. Shijoati, doimiy mashg‘ulotlar o‘z samarasini berdi — u Osiyo chempioniga aylandi.

— Bu sport turi bilan yetti yildan buyon shug‘ullanib kelaman, — deydi u faxrlanib. — Turli musobaqalar g‘olibi, O‘zbekiston chempioni bo‘lganman. 2022-yil Tailandda o‘tkazilgan Osiyo chempionatida oltin medalni qo‘lga kiritdim. Albatta, bu yutuqlarni qo‘lga kiritishimda mahalladagi yoshlar yetakchisi hissasini alohida ta‘kidlamogchimam. Sababi, doim mendan hol so‘rab, musobaqalarga tayyorgarlik



jarayonida har tomonlama ko‘mak berdi. Hozir ham tez-tez kelgusi rejalar haqida suhbatlashib turamiz.

Ha, bugun yoshlar yetakchilari Asilbek singari yigit-qizlarning orzulari ro‘yobga chiqishida yelkadosh bo‘lmogda. Hozirda bu mahalladagi 576 nafar yoshning 312 nafari “yashil”, 264 nafari “sariq”, 22 nafari “qizil toifa”ga kiritilgan bo‘lib, og‘ir toifadagi yoshlarning muammolarini hal etish bo‘yicha samarali ishlar olib borilmoqda.

Navqiron mahallasidagi Qodirjon Karimov bedanachilik bilan shug‘ullanib, oilasiga daromad olib kelyapti. Yoshlar yetakchisiga murojaatidan so‘ng 12 million so‘mlik inkubator apparati subsidiya asosida olib berildi. Bundan ruhlangan yosh tadbirkor kelgusida faoliyatini kengaytirish, bir nechta ish o‘rni yaratishni maqsad qilgan.

Ayni vaqtda tumandagi 395 nafar ishsiz yoshlarning 50 nafariya subsidiya asosida uskunalar olib berilgan va 128 nafar yigit-qizni bo‘sh ish o‘rinlariga joylashtirish belgilangan.

Karmana tumanida “Yoshlar daftari”ga joriy yilning o‘tgan davrida 533 nafar yordamga muhtoj yoshlar kiritilgan. Shundan

306 nafariga turli zarur yordam ko‘rsatilib, ro‘yxatdan chiqarildi. Shuningdek, ko‘plab yoshlarning ta‘lim uchun to‘lov-kontraktlari yarmini qoplab berish, bir martalik moddiy yordam ko‘rsatish, davolanishi uchun tegishli mablag‘ ajratildi.

Tumandagi Do‘rmon mahallasida istiqomat qilayotgan 30 yoshli Elbek Shomurodov 10 yildan buyon salomatligidagi muammo tufayli muntazam davolanadi. Mahalladagi yoshlar yetakchisining mas‘ullarga bergan tavsiyalari asosida uning sog‘lig‘ini tiklash uchun zarur yordam ko‘rsatib kelinaypti. Eng muhimi, ana shu e‘tibor tufayli Elbekning sog‘lig‘i tiklanmogda.

Tumanda o‘tgan vaqt mobaynida ishsiz yoshlarning o‘zini o‘zi band qilishi borasida ularga subsidiya asosida mehnat qurollari va boshqa asbob-uskunalar olib berildi. Nurafshon mahallasi yoshlari ham bu kabi imkoniyatlardan samarali foydalanmogda. Jumladan, 20 yoshli Muxtor Ortiqovga ham subsidiya asosida g‘isht ishlab chiqarish uskunasi olib berilgani uning yosh tadbirkor sifatida nom qozonishida muhim omil bo‘ldi.

Bundan tashqari, “Yoshlar daftari”ga kiritilgan mehnatga layoqatli fuqarolar, ishsiz yoshlarga yer uchastkasi berish tizimi keng joriy etilishi ham bandlik borasidagi mavjud masalalar yechimiga xizmat qilmoqda. Shu asosda ishsiz yoshlarga dehqon xo‘jaliklari tashkil etish uchun auktsion savdolari orqali yer ajratildi. Mahalla yoshlari o‘zlariga ajratilgan yer maydonlarida ekin yetishtirib, yaxshigina daromad olmoqda. Albatta, yerdan samarali foydalanish nafaqat bir oilaga daromad, balki aholini sifati oziq-ovqat bilan ta‘minlashda ham muhim ahamiyatga ega. Ayni vaqtda mahalladagi yoshlar turli sabzavot ekinlari ekib, yiliga ikki-uch marotaba hosil olishni ham uddalayapti.

— Mahallamizda 3 ming 600 nafar aholi bo‘lib, ularning 1000 dan ziyodini 14 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lganlar tashkil qiladi. Ishsiz, ehtiyojmand va ta‘lim olayotgan

yoshlarga “Yoshlar daftari” jamg‘armasi orqali turli ko‘rinishdagi yordam ko‘rsatib kelamiz. Birgina dehqonchilik yo‘nalishida 17 nafar yoshga 30 yilga 30 sotixdan auktsion orqali ijara asosida, 24 nafar yoshga takroriy ekin uchun yer maydonlari ajratib berildi va ishsizlar bandligi ta‘minlandi. Yoshlar bir yilda ikki-uch marta hosil olib, 50 million so‘mgacha daromad topaypti, — deydi Nurafshon mahallasi yoshlar yetakchisi Jahongir Razzoqov.

Albatta, yoshlar siyosati bo‘yicha ilgari surilayotgan islohotlar yigit-qizlar uchun katta imkoniyatlar ehsiniga ochmogda. Bundan oqilona foydalanayotganlar esa oilasi va jamiyatga foydasi tegadigan asosiy kuchga aylanmogda.

Bir so‘z bilan aytganda, har bir yoshning kelajagi uchun zamin yaratish, ularning muammolarini bartaraf etish, kasb-hunar egallashiga ko‘maklashish nafaqat aholining ijtimoiy hayoti yaxshilanishi, balki mamlakat istiqbolli porloq, kelajagi ishonchli qo‘larda bo‘lishini ham anglatadi.

G‘olib ABDUSALOMOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



YER VA EL

Qo'shiqqa aylangan umr

(Ocherk)

Saydali ODILOV,
O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a'zosi

Boshlanishi 1-betda

Albatta, u avvalo, ayol edi. Nozik did, yumshoq dil, sarishta, boshidan oppoq ro'moli tushmaydigan ayol edi. Qaqroq dasht yerga brigadir bo'lgach, shiyponi oldida kichik paykalcha ochib, qishloqdagi ser-unum yerlardan tuproq tashidi. Gulu rayhon, o'smayu xina ektirdi. Qizlarga kerak-da. Velosipedda chelaklab suv keltiradi.

Taqdiridan nolimas, ko'ziga yosh olmasdi. Yo'q, bir marta yosh oldi. Viloyatda bo'lib o'tgan paxtakorlarning qurultoyida. Yoshlar brigadalari nomidan unga so'z berishganda. Oltiariqning aksariyat xo'jaliklari Katta Farg'ona va Janubiy Farg'ona kanallaridan suv ichadi. Yayrab-yash-nab dehqonchilik qiladi.

Faqat Lolaning brigadasi yerlarining kuni zaxob suvlarga qolgan. Dalasi za'faron, begona o'tu ajriq kovlagan odamlarining tortayotgan azobi adoqsiz. "Qachongacha shunaqa bo'ladi?" deya o'ksinib yurardi. Minbarga chiqqach, bu o'ksik ko'zidan yosh bo'lib quyildi. "Qachongacha", deya so'zini davom ettirilmay qoldi.

O'sha paytdagi viloyat birinchi rahbari — Hamdam Umarov bir stakan suv keltirib, qizga uzatdi. Dastro'molini olib, qo'lga tutqazadi.

— Yoshingni art, qizim. Darding nima, bizga shuni ayt. Ko'plashib davosini topamiz.

Bu daldadan o'ziga kelgan Lola:

— Dalarim Farg'ona kanalidan ikki chaqirim narida. Shovullab oqishini eshitamiz, ko'ramiz. Ammo bir tomchi suviga zormiz. Zaxob suv ichamiz, yer sug'oramiz. U ajriqning onasi. Yiliga gektaridan yetmish tonnagacha ajriq teramiz.

— Xax suv ajriqning onasi, degin. Xo'sh, nima qilaylik?

— Bitta nasos, kichkinagina nasos stansiyasi qurish shunchalik qiyinmi? Uchramagan rahbarim, bosh urmagan eshigim qolmadi. Ha, nima emish, Moskov ruxsat bersa qurilarmish.

— Shumi darding?

— Shu.

Hamdam Umarovich zalga yuzlandi.

— Viloyat suv xo'jaligi, kanal boshliqlari, arxitektor, shu yerdamisizlar?

Aytigan kishilar o'rinlaridan turdi.

— Qurultoydan keyin hammamiz mana shu qizimning dalasiga boramiz. Masalani o'sha yerda hal qilamiz. Sen esa... isming nimaydi?

— Lola... Lola Murodova.

— Lola qizim, hozir dalangga qayt. Bizni kutib olasan.

Viloyat rahbari uni ikki bor qizim deganidan qo'sh qanot chiqarib, dalasiga uchdi. Hamisha hamroh dugonasi Manzuraga qurultoyda qanday yig'lab bergani haqida maqtanib ulgurmasidan dalasiga viloyat, tuman rahbarlari, mutasaddi kishilar yetib keldi.

Ma'lum bo'lishicha, suv tortish stansiyasi qurish haqida avval ham gap bo'lgan, loyiha-lar qilingan, hamma muammo unga ketadigan xarajat — bir yuz o'ttiz ikki ming so'mga qadaliq qolgan ekan. Bunga Respublika suv xo'jaligi va moliya vazirliklari, Respublika va nihoyat SSSR o'tliq hukumatning tegishli tashkilotlari ruxsat bermayotgan emish.

Hamdam Umarovich tutaqib keldi:

— Byurokratlar! Oblast moliyachisi, suv xo'jaligi rahbari, bugunqo o'z rahbarlarinigizga xat tayyorlang. O'zim imzo qo'yaman. Ularda shu pul topilmasa, o'zimizning zaxira fondimizdan olinglar. Bir oy muddat, nasos stansiyasi qurib bitkazilishi shart.



Bu so'zdan sarosimaga tushganlar ham bo'ldi.

Viloyat rahbari davom etdi.

— Yana bitta gap. Shu kungacha hech bir ko'cha, inshoot xo'jalikka hayot odamning nomi qo'yilmagan. Ammo biz bugun qo'yamiz. Bo'lajak nasos stansiyasi Lola Murodova nomida bo'lsin. Nima deysizlar?

Hamma baland kayfiyatda qarsak chaldi. Lola Murodova ham. Ammo qachondir bu qarsakning badalini to'layman deb o'ylamagandi. O'zbekiston boshiga bala bo'lib yopirilgan mudhish "paxta ishi" uni ham chetlab o'tmadi.

"Nima emish, Lola Murodova o'sha ko'z yoshini artib qo'ygan Hamdam Umarovichga pora berib, o'z nomiga nasos stansiyasi qurdirganmish".

Qanchalar tuturiqsiz ayblov-a?! 100 so'mga yetib-yetmay maosh oladigan bechora brigadir qanaqasiga pora bersin. Kulgilimi? Yo'q. Yig'lagulik.

Uni "desantchilar" uya qurib olgan Qir-

— Bir yuz o'ttiz ikki ming so'mga deysiz-gandi.

— O'h-hu. Katta mulk-ku, Xudoyorxonin-gizdayam buncha pul bo'lmagandir.

— Unisini bilmadim.

— Bilmadim emish.

— Umarovga qancha uzatgansiz?

“

U o'zini palaxmon toshiga o'xshatardi. Tumandagi biror jiddiy yig'ilishga kirishga yuragi bezillardi. Qaysi xo'jalik yo uchastka o'tirib qolsa, asqatadigan Lola Murodova edi. Palaxmon qo'lida bo'lganlar uni o'sha yoqqa irg'itardi. Roziligini so'rab ham o'tirmasdi.

Shu yerga kelganda Ne'mat ota chidoldi.

— Hoy prokuror bola, sen nima deya-yotganingni bilyapsanmi? Oyligi o'ziga yetmaydigan, boriniyam brigadasiga



guliga so'roqqa chaqirishdi. Urush ko'rgan otasi Ne'mat Murodov birga keldi. So'roq xonasiga ham birga kirdi. Tergovchi har-chand urinmasin, bu qaysar cholni xonadan chiqarib yuborolmadi.

— Xo'sh, Lola Murodova, mash'al brigadir ekansiz-da?! Butun boshli suv tortish stansiyasi sizning nomingizda emish. Qanchaga qurdirgansiz?

beradigan shu qiz qanaqasiga pora bersin?

Tergovchiyam past kelmadi.

— Bilganimdan aytayman. Mana dalil. Mana guvohlarning ko'rsatmasi, — deya qog'oz titkilashga tushdi. — Bular bilan qizingga qo'shib, seniyam qamoqqa tiqishga dalillarim yetarli.

— Qama, men frontchini qama. Ammo

qizimni tinch qo'y. To'xta, sen o'zi qayerdan-san?

Ne'mat otaning frontchiligi, vajohati, ko'ksiga urib rus tilida ravon so'zlayotgani "desantchi"ni hovuridan bir oz tushirdi.

— Aytaylik, Dnepropetrovskdan, ni-maydi?

— Hoy bola, men to'rt yil jang qildim. Aynan sening shahringni deb qon to'kdim. Sen esa mening gunohsiz hamqishloqlarimni, qizimni qoraga ko'mib qon yig'latyapsan. Insofing bormi?

Frontchining o'qdek otigan so'zlariga tergovchi ortiq dosh berolmadi.

Qo'lida silkitib turgan qog'ozlarni bir-bir yirtib, yonidagi savatchaga tashladi.

— Bo'shsizlar!

— Qizim hammi?

— Ha, ko'rdingiz-ku, dalillarni yirtdim. Yana nima qilay?!

Lolaning mushdekkin boshiga tushgan ko'rgiliklardan bittasi edi bu.

U o'zini palaxmon toshiga o'xshatardi. Tumandagi biror jiddiy yig'ilishga kirishga yuragi bezillardi. Qaysi xo'jalik yo uchastka o'tirib qolsa, asqatadigan Lola Murodova edi. Palaxmon qo'lida bo'lganlar uni o'sha yoqqa irg'itardi. Roziligini so'rab ham o'tirmasdi.

Enajarga kelib qolishiyam shunday bo'lgan. Unda bu yerlar Kirov nomli xo'jalik deylardi. Mehnat bor-u, unum yo'q edi. Yerga yer qo'shilmasdi. Har yil reja qir-qellik foizdan oshmasdi.

— Lola, Enajarga borasiz, — deb qoldi tuman kattasi Usmonjon Begmatov.

— Usmonjon aka, biror marta roziligimni so'raysizlarmi? — noliganday bo'ldi Lola.

— Kanaldan suv olib, Polosonda yayrab qoluvdik. Endi Enajarning uchar qumlariga ro'para qilyapsizmi?

— Polosondayam o'n yettita erkak boshqarib eplolmagan ishni siz uddalagandingiz. Uchar qumlar qanotini qayirib olish ham qo'lingizdan keladi. Odamlar sizga ishonadi. O'rtigizdan boradi.

Unda suyangan tog'i — otasi hayot edi. Dalda bo'ldi:

“

— Juda ko'p telefon bo'ladi, — degandi u. — Vodiyni qo'ying, vohadan, Surxon-u Qarshidan so'rashadi. Siz haqingizda juda ko'p eshitamiz. Borsak, ko'rsak, siringizni bilsak, deyishadi. Menda sir nima qilsin?! Oddiy mehnatda hammasi... Kelinglar, ko'ringlar deymen. Ko'rsatib, maqtanadigan dalam bor. Gohida o'ylab qolaman. Shu fermerlar maktabini ochsammi deb. Xudo umr berib tursa, ochaman ham. Tirikchilik qidirib, atrofga bosh urib yurgan yoshlarga nafi tegib qolar, deymen-da.

— Ko'z qo'rqqoq deyishadi. Hamma gap qo'lida. Qo'lingga ishon. Yoningda men borman.

Uchar qumlar qanotini qayirish oson kechdi deysizmi? Gap faqat qo'lida emas ekan. Kunu tun traktoridan tushmagan, haftalab kirza etigini yechmagan hollar ko'p bo'ldi. Nima qilsin, xo'jalik boshlig'i ham, traktorchisi ham o'zi. Unga ergashib, Enajarga kelgan tengqurlar-u onasi tengilar uchun boshpanasi yo'q biyday dalada noli-maydigan odamlarga mehribon ham o'zi...

Shiypon masalasi. Lola Murodova boshliq bo'lib kelganda xo'jalikda bitta keksa chinor-u omonat kapadan boshqa narsa yo'q edi. Avvalgi ayrim raislar shinamgina uyidan qatnar, chamasini xo'jako'rsinga dalasiga kelar, shunda ham o'zi uchun ekan polizdan xabar olib qaytardi. Ahvol shu bo'lgach, reja qir-qellik foizdan oshmaydi-da.

Lolaning birinchi ishi har yoqqa bosh urib, ikkita keng palatka topish bo'ldi. Unga ishonib kelgan o'ttizga yaqin erkagu ayolga alohida-alohida boshpana kerak-da. Axir Poloson bilan Enajar orasi o'n besh chaqir-mandan ziyod. Tashuv transporti — pritsepli traktor.

Xo'jalik boshiga katta talafot tushmaguncha peshonasiga shiypon bitmadi.

...G'o'za ayni shonalagan paytda uchar qumlar ucharligini qildi. Oltiariqda shamol tursa, Enajarda dovulga aylanadi. Oqshom boshlangan shamol, tunda bo'ron bo'lib, xo'jalik ekinlarini payhon qildi. Dovul tinmay dalasi boshiga kelgan Lola unda-bunda qumlar tagidan bosh ko'tarib turgan g'o'za cho'plariga qarab yig'ladi, unsiz yig'ladi. Mehnatiga, qadriga, uni qora tortib kelgan odamlar taqdiriga kuyundi.

Ihota uchun ko'proq daraxt ekaylik dedi, bo'lmadi. Odamlari haliyam shamol u yog'idan kirib, bu yog'idan chiqadigan palatkalarda jon saqlayapti. Necha bor zorilladi, boshpana qurish haqida gap bo'lmadi. Avval mototsiklini tarillatib otasi, ortidan tuman kattasi Usmonjon Begmatov yetib keldi. Lola ularga dardini to'kib soldi.

— Tun-u kun boshimizda shamol o'ynaydi, quyoshning ayovsiz tig'i kuydiradi. Yeganimiz g'ij-g'ij qumli ovqat, ichganimiz zaxob, go'daklarning atalasidayam qum, ularning gunohi, bizning aybimiz nima, palaxmon toshiday itqitilib, borgan joylar-ingda kuningni o'zing ko'r deganlarimgi?

Tumanning kattasi haydovchisiga nima-dir deb, iziga qaytardi.

— Kuyinmang, — dedi u. — Hozir tumanning barcha kattalari, qo'shni xo'jaliklar texnikasi-yu odamlari yetib keladi. Chigitni boshqatdan ekamiz.

— May oyida-ya?

— Iyunda bo'lsayam.

Uchovlashib, ikki yuz oltmish gektarlik

ekinzorni ko'rib chiqquncha, aytilgan odamlar ham yetib keldi.

— Oltiariqda oltita qurilish tashkiloti bor, rahbarlari shu yerdami? — so'radi u. O'rnidan qog'zalgan odamlarga qarab:

— Sizlarga qirq kun muhlat, — dedi. —

Arxitektor bilan kelishib, o'z hisobingizdan bittadan dala shiyponi qurib berasizlar. Hamma sharoiti bo'lsin. Shu muddatda bitkazmasangiz, Belariqqa (Nurli obodning avvalgi nomini shunday atashardi) kelib, Lola Murodovaning qo'lida brigadirlik qilasizlar. E'tirozlar, savollar bo'lmasa kerak, — so'ziga nuqta qo'ydi rahbar.

Usmonjon Begmatov so'zi o'tadigan, aytganini qildiradigan odam edi.

Hamma yeng shimarib, ishga kirishdi. O'sha yil paxta ham bo'ldi, shiyponlar ham quzildi. Nurli obodning poydevoriga g'sisht qo'yildi.

So'ng... Lola Murodovaning Enajarni "Nurli obod" qilguncha o'tgan har bir kuni mehnatga, mashaqqatga to'la o'tdi. Bular balandparvoz so'zlar emas, uni yosh qizaloqligidan bilgan odam sifatida aytayman.

Rohatli kunlar ham bo'ldi. Qadr topdi. Qator ordenlar, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan qishloq xo'jalik xodimi, hatto O'zbekiston Qahramoni unvonini olganini ham dalasida turib eshitdi. Yurtboshimizni shu yerda kutib oldi. Bunday sharafta munosib edi u.

O'zbekiston xalq shoiri Enaxon Siddiqova bilan hamkorlikda Lola Murodova haqida pyesa yozdik. U Farg'ona viloyat musiqali drama teatrida sahnalashtiriladigan bo'ldi. Enaxon-u teatr jamoasi jam bo'lib, "Nurli obod"ga qayta-qayta bordik. Uning nomiga atalgan spektaklda kuylangan qo'shiq ham aynan shu yerda tug'ildi. O'sha kezlari Lolaning tasodifan aytgan bir so'zi yodim-dan ketmaydi.

— Juda ko'p telefon bo'ladi, — degandi u. — Vodiyni qo'ying, vohadan, Surxon-u Qarshidan so'rashadi. Siz haqingizda juda ko'p eshitamiz. Borsak, ko'rsak, siringizni bilsak, deyishadi. Menda sir nima qilsin?! Oddiy mehnatda hammasi... Kelinglar, ko'ringlar deymen. Ko'rsatib, maqtanadigan dalam bor. Gohida o'ylab qolaman. Shu fermerlar maktabini ochsammi deb. Xudo umr berib tursa, ochaman ham. Tirikchilik qidirib, atrofga bosh urib yurgan yoshlarga nafi tegib qolar, deymen-da.

Afsuski... Umri vafo qilmadi. Ammo yaxshi niyat yerda qolmas ekan. Uning egzu maqsadlari bugun amalga oshish arafasida.

Lola Murodova hayotining ayrim nuqtalariga yugurik nazar tashladim. Ko'z o'ngimda uning boshda oppoq ro'moli, kirza etigi to'pig'igacha tuproqqa botib, dalasini tinmay kezayotgan, "Nurli obod"ni nurli qilgan, nurli siymosi gavdalanib turadi.

“Yangi O'zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DUK

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-646.
41011 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taqoq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Bahor Xidirova
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manziliimiz: 100029,
Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy

O'za yakuni — 00:20 Topshirildi — 00:25

Qabulxona: (71) 233-56-33

Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05